

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**LINGUOCOGNITIVE ANALYSIS OF MUSIC TERMS****Shohsida Toshnazarovna Eshbutayeva**

Teacher (PhD)

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

shohsidaeshbotayeva92@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: music term, cognitive linguistics, linguocognitive analysis, mentality, mentality, concept.

Received: 23.10.25**Accepted:** 24.10.25**Published:** 25.10.25

Abstract: This article analyzes the role of musical terms in expressing the linguistic landscape of the world, the factors underlying its formation, using the example of Uzbek musical terms.

MUSIQA TERMINLARNING LINGVOKOGNITIV TAHLILI**Shohsida Toshnazarovna Eshbo'tayeva**

O'qituvchi (PhD)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

shohsidaeshbotayeva92@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: musiqa termini, kognitiv tilshunoslik, lingvokognitiv tahlil, mentalitet, mentallik, konsept.

Annotatsiya: Ushbu maqolada olamning lisoniy manzarasini ifodalashda musiqa terminlarining o'rni, uning shakllanishiga asos bo'lgan omillar o'zbek musiqa terminlari misolida tahlil etilgan.

ЛИНГВОКОГНИТИВНЫЙ АНАЛИЗ МУЗЫКАЛЬНЫХ ТЕРМИНОВ**Шохсида Тошнazarовна Эшбутаева**

Преподаватель (PhD)

Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

shohsidaeshbotayeva92@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: музыкальный термин, когнитивная лингвистика, **Аннотация:** В данной статье анализируется роль музыкальных терминов

ЛИНГВОКОГНИТИВНЫЙ анализ, менталитет, в выражении языкового ландшафта мира, факторы, лежащие в основе его формирования, на примере узбекских музыкальных терминов.

Kirish. Til xalqning mental tasavvurlari va madaniyati bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, millat mentalitetining asosidir. U xalqning an‘analari, madaniyati, ijtimoiy tuzilmasi va turmush tarzi yordamida shakllanadi.

Mentalitet – jamiyat, millat yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, madaniy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlardagi aqliy qobiliyati, ruhiy quvvatidir (ЎТИЛ, 2007:175). Shuningdek, jamiyat, millat yoki alohida shaxsning mentaliteti ularning o‘ziga xos an‘analari, rasm-rusumlari, urf-odatlari, diniy e‘tiqod va irimlarini ham qamrab olishi bilan ahamiyatlidir.

Mentallik – milliy xarakterning intellektual, ma‘naviy va iroda xususiyatlarini o‘zida birlashtiradigan, ona tili kategoriyalari va shakllaridagi dunyoqarashning ko‘rinishi. Mentallikning birligi mazkur madaniyatning konsepti hisoblanadi (Sh.Usmanova, 2022: 242). Insoniyatning borliqni anglash me‘yori sanalgan mentalitet mentallikning yuzaga chiqishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. U odamlarning katta guruhlar – etnik guruhlar, millatlar yoki ijtimoiy qatlamlarga xos bo‘lgan, borliqni anglash va uni voqelantirishning barqaror usulidir. Mentalitet ajdodlarning kognitiv majmuyi hisoblansa, mentallik uni shakllantiruvchidir. Til tadqiqiga jamiyat, millat, madaniyat, qadriyatlar, inson, uning tafakkuri kabi omillarni ham e‘tiborga olgan holda yondashish natijasida lingvomadaniyatshunoslik fani yuzaga kelgan bo‘lib (D.Xudoyberganova, 2023: 14), milliy mentallik tushunchasi ushbu fanning asosiy terminlaridan sanaladi.

Tadqiqot metodi va natijalari. Musiqa terminlarining kognitiv xususiyatini tahlil etar ekanmiz bu jarayonda musiqa bilan bog‘liq terminlar inson tafakkuri va bilish jarayonida qanday shakllanishi, tushunilishi hamda til egasi ongida qanday konseptual tizim hosil qilishiga alohida e‘tibor qaratish lozim. Ushbu tahlil natijasida musiqa terminlari nafaqat til birliklari, balki inson ongida musiqiy bilim va tajriba modeli sifatida mavjudligini aniqlash mumkin.

Tushuncha ifodalovchi har bir musiqa termini zahirida ma‘lum konsept yotadi. Mantiqiy faoliyat hosili bo‘lgan tushuncha va kognitiv tilshunoslikda keng miqyosda qo‘llanilayotgan konsept atamalarini bir xil qo‘llash mumkinmi? So‘zsiz, bu ikkala hodisa ham tafakkur birligi sifatida namoyon bo‘ladi (Sh.Safarov, 2006:15).

Natijalar. Jumladan, ritm musiqa termini sifatida “musiqa asaridagi tovushlarning uzun-qisqaliklari jihatidan bo‘lgan munosabatlari” (I.Akbarov: 285) ilmiy tushunchasini ifodalashi bilan bir paytda vaqt va tartib konsepti ham sanaladi. O‘lan – xalq ijodi janri bo‘lgan qo‘shiqning bir turi. Turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan, asosan, ayollar ijrosida choldirma jo‘rligida kuylanadi.

Beshik to'y o'lani, nikoh to'y o'lani kabi turlari mavjud (A.Umarov., M.Bekmurodov, 2015: 320). Bu so'z qadimgi turkiy tildagi namlik ma'nosini anglatgan ol asosidan yasalgan bo'lib, eski turkiy til davrida olän shaklida bo'lgan (Sh.Rahmatullayev, 2000: 473). Abdurauf Fitrat musiqaga oid asarida Alisher Navoiyning quyidagi misralarini keltiradi:

Oyog'chi, keltur jomni lab-balab,
Ki, to'y o'ldi ayom-i ishq-u tarab
Mug'anniy urib changga zebanda chang,
Navo chek-ki, hay-hay o'lang, jon o'lang,
Ayolg'ung necha yor-yor o'lg'usi,
Mening yig'larim zor-zor o'g'usi (A.Fitrat, 1993: 38)

Ushbu leksemaning DTSda "maysazor" ma'nosi berilgan (DTS, 1969: 383). G.Klovsun lug'atida esa "kelin to'yida kuylanuvchi qo'shiq" ma'nosi keltirilgan (G.Klovsun, 1972: 147).

Bizningcha, ushbu qo'shiq turi sanalgan leksemada, asosan, kuylovchining dardlari, orzu-umidlari, iztiroblari kuylangani, ya'ni inson ko'ziga nam keltiruvchi dardli ohang yetakchi ekanligidan kelib chiqib, xalq ongida paydo bo'lgan mentallik asosida urf-odat va marosimlarda kuylanadigan ijro haqidagi milliy-madaniy konsept aks etgan.

Childirma – yog'och gardishga terini tarang qoplab yasalgan va chertib chalinadigan musiqa asbobi. Bu ot qadimgi turkiy tildagi chertib chiqariladigan bo'g'iq tovushni ifodalovchi chaldır-chaldır taqlid so'zidan eski o'zbek tilida -ma qo'shimchasi bilan yasalgan (Sh.Rahmatullayev, 2000: 425). Hozirgi o'zbek adabiy tilida ushbu cholg'u nomini ifodalovchi fors-tojik tilidan o'zlashgan doyra termini faol sanaladi. Bir tushunchani ifodalovchi ikki termin ikki xalqning mental jihatdan predmetning turli xususiyatlariga e'tibor qaratganligini ifodalaydi. Jumladan, fors-tojik xalqi predmetni shakliga qarab atagan bo'lsa, o'zbek xalqi uni xususiyati, ijro jarayoni va bajaradigan vazifasidan kelib chiqib nomlagan. Shuningdek, ushbu cholg'u turkiy xalqlarning eng qadimgi musiqa asboblari sanalib, tangrikanlik (Q.Sodiqov, 2022: 83), dinida shomonga Yerlik (yer osti saltanatining hukmdori) bergan va ushbu cholg'uga osmon hamda yer ilohlari bilan muloqot o'rnatish vositasi deb qaralgan (A.Bo'ronov, 2017: 77). Tahlillar natijasida o'zbek xalqining mental tuzlimasi, milliy-madaniy konsepti asosida shakllangan childirma terminini adabiy tildagi o'quv va izohli lug'atlarimizga qaytarish lozim, degan xulosaga kelindi.

Muhokama. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, har bir xalq musiqa terminlari orqali o'zining madaniy dunyoqarashi va musiqiy tafakkurini ifodalaydi. Shuningdek, musiqa terminlari yordamida til egasi musiqiy bilimlarini kategoriyalarga ajratadi: janr nomlarini ifodalovchi terminlar: qo'shiq, simfoniya, opera, maqom; cholg'u nomlarini ifodalovchi terminlar: damli cholg'ular: nay, qo'shnay, surnay; zarbli cholg'ular: baraban, doyra va boshqa shu kabilar. Ushbu tasniflar ongda orttirilgan bilimni tartibga solib, uni tushunilishini osonlashtiradi.

Xulosa. Musiqa terminlarini lingvokognitiv tahlil etish orqali inson tafakkuri, idrok jarayoni va til o'rtasidagi munosabat oydinlashtiriladi. Natijada, musiqa terminlari faqat til hodisasi emas, balki ular ortida madaniy bilim, kognitiv jarayon va assotsiativ fikrlash yotishi ma'lum bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида.
– Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – В. 175.
2. Usmanova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. – Toshkent: Bookmany print, 2022.
– В. 242.
3. Худойберганова Д. Замонавий ўзбек тилшунослиги терминологиясининг тараққиёт омиллари // Ўзбек тили ва адабиёт. – Тошкент, 2023. – № 4. – Б. 14.
4. Умаров А., Бекмуродов М. Маданият ва санъат атамаларининг изоҳли луғати.
– Тошкент: Гафур Ғулом, 2015. – Б.320.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. I жилд. –Тошкент: Университет, 2000. – Б. 473.
6. Абдурауф Фитрат. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. – Тошкент: Фан, 1993. – Б. 38.
7. Clauson G. An etymological dictionary of pre-thirteenth-century Turkish. – Oxford: at the clarendon, 1972. – P. 147.
8. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 425.
9. Sodiqov Q. O'zbek mumtoz adabiyoti (Qadimgi turkiy adabiyot). – Toshkent: Akademnashr, 2022. – В. 83.
10. Бўронов А. Олтойлар. – Тошкент: Мухаррир, 2017. – Б. 77.